



SINONIMIK QATORDA POETIK LEKSIKA MASALASI (ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA)

Axrorov Alisher Akbarovich
GulDU, axrorov891115@gmail.com
Begjigitova Diyora Abdumannob qizi

GulDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11560623>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 28th May 2024

Published: 11th June 2024

KEYWORDS

*leksema, poetiklik, poetik
leksika, nazm, sinonimik qator,
sinonimlik*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada Erkin Vohidov ijodida qo'llanilgan
sinonim leksemalarda poetiklik masalasi, shoir ijodida
ularning o'ziga xos o'rni va ahamiyati, til imkoniyatlari
yoritib berildi.*

Nutqning eng oliy ko'rinishi she'riy nutqdi. Shuning uchun ham she'riy nutqda emotsional-ekspressivlik ancha yuqori bo'ladi.

Nasrda buncha shiddat,

Nazmda buncha san'at,

She'r bundoq qirq yorilgan

Qilcha bo'lurmi, hay-hay.

misralarida Erkin Vohidov ham shunga ishora qiladi. She'riy nutq imkoniyatlarini "Qilni qirq yorgan" holda tadqiq qilish muhim. Shunda har bil til elementining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Shunday xususiyatlardan biri poetiklik va poetiklikni ta'minlovchi til elementlari hisoblanadi. Nazmiy asarlarda poetiklik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham poetiklik masalasini o'rganish, she'riy matnning poetikligini ta'minlovchi vositalarni tadqiq qilish tilshunoslik uchun ham adabiyotshunoslik uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Poetiklikni ta'minlovchi vositalardan biri sinonimlardir. Sinonimik qatordan mohirona foydalanishning o'ziga xos ko'rinishlarini Erkin Vohidov ijodida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Ishq, muhabbat, sevgi bu sinonim qatorda ishq so'zi sof poetik so'z, ammo muhabbat so'zida ham poetiklik sezilib turadi, sevgi so'zlari esa sinonimik qatorda umumnutqiydir. "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"da ham muhabbat va ishq so'zlarida kitobiylik ta'kidi mavjudligi aytib o'tilgan[1,116]. Ammo ularni ham ma'no nozikligiga ko'ra darajalash mumkin. Bu yerda sevgi – dominant – bosh so'z bo'lsa, muhabbat va ishq so'zi bo'yoqdor, kitobiy leksemdir, shunga qaramay ishq so'zi bu leksemalar ichida eng yuqori bo'yoqdorlikka va tasirchanlikka ega leksema hisoblanadi.

Sevgi kelsa qaddi yo ham yosh bo'lur,

Sevgisiz jonona haykaltosh bo'lur.

(Erkin Vohidov, "Sevgi kelsa")

Chin muhabbat ming jafoga dosh berar,
Lek xiyonatga u bebardosh bo'lur.
(Erkin Vohidov, "Sevgi kelsa")

Ishq yo'lin firdavs yo'li deb anglagil,
Pok diling, Erkin, bu yo'lda bosh bo'lur.
(Erkin Vohidov, "Sevgi kelsa")

Yurak, ko'ngil, dil, qalb sinonimik qatordada ham yurak leksemasi umumnutqiy leksema sifatida bosh so'zni ifodalab keladi.

Jahonda toki bunyodsen
Ki, nomi odamizodsen,
Yuraqdek tinmagan aslo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

(Erkin Vohidov, "Qo'llar" qasida)

Yurak leksemasi poetik leksema bo'lmasligi mumkin, ammo she'riy parchada petiklikni ifodalaydi. Poetiklik va poetik leksema ikki narsa deya yuqorida ta'kidlab o'tildi. Yurak leksemasiga nisbatan ko'ngil leksemasida kitobiylik, buyoqdorlik yuqori ekanligi ko'rinadi. Shuning uchun ham ko'ngil leksemasini poetik leksema sifatida keltirish mumkin:

Neki maqsud bor ko'ngilda,
Pok ko'ngil birlan etib,
Neki baxt topsam jahonda,
Bir o'zing birlan topay:

(Erkin Vohidov, "Qo'llar" qasida)

Yurak va ko'ngil leksemalariga nisbatan dil leksemasida poetiklik yuqoriroq va bu yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham sinonimik qatroda dil poetik leksema sifatida qaraladi:

Goh adolat bog'ida,
Piri adovat gohida,
O'z diling dargohida

Shayton o'zing, g'ilmon o'zing

(Erkin Vohidov, "Inson" qasida)

Bu sinonimik qatorda dil va qalb leksemalarida nisbatan buyoqdorlik yuqori mavjud o'rganishlarda sinonimik qatordagi bu ikki leksemada emotsionallik ancha yuqori. Shuning uchun ham bu ikki leksemaga poetik leksema sifatida qaraladi. Shoir bu sinonimik qatordan shoir unumli va mahorat bilan foydalanadi:

Bu zamon daryosi tezdir,
Ahli she'r istar zulol,
So'z netib ruhbaxsh bo'lur,
Dilkosada tinmay turib.

(Erkin Vohidov, "Dur bo'lib tomgaymi so'z...")

Poetik leksemalar orasida ijodkor induvidualligi asosida shakllangan leksemalarning ahamiyati katta. Chunki tilning imkoniyatlarini, o'zgachaligini, ijodkor mahoratini ta'minlovchi vositalar ham aynan shular hisoblanadi. Biror bir yozuvchi va shoirning til mahorati o'rganilganda tildan foydalanish, til imkoniyatlarini o'rinli, asosli, joyi bilan qo'llanishi bilan birga, ijodkor individual mahoratiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Badiiy asar yoki she'riyat tilini o'rganishda bunday masalalarning tadqiqi muhim masala hisoblanadi. Mumtoz adabiyot tilida bu sinonimik qatorga ramziy ma'noda ishq mayi to'ldiriladigan jom, kosa sifatida qaralishi barcha ayon. Yuqoridagi misralarda ham bunga ishora qilgan holda *dilkosa* so'zi qo'llanilgan.

Umuman olganda, Erkin Vohidov o'z ijodida tilning barcha imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. So'zlarga ajib sinoat sifatida qaraydi va uning bor jilvasini ko'rishga, o'quvchiga ko'rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun ham dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlardan biri so'z olamiga sayohatdir, deya to'g'ri ta'kidlaydi [2,7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurayev, J. (2022). Axrorov Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 11(11).
2. Axrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. Uzbekistan: Language and Culture, 4(4).
3. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. Pedagogika, 171.
4. Axrorov, A., Ermatov, I., & Ro'ziqulov, S. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 4-7.
5. Jurayev, J. (2022). Akhrorov Alisher Akbarovich. EXPRESSION OF GENERAL HIDDEN MEANING IN ARTICLES. JOURNAL OF PHILOLOGY HORIZONS, 11(11).
6. Ermatov, I., Axrorov, A., & Mamaraximov, S. (2024). TERMINOLOGIYADA GIPERO-GIPONIMIK HODISALAR. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 12-15.
7. Sharipov, F., Axrorov, A., Mamatqulov, A., & Xudoyqulova, S. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 30-33.
8. Jurayev, J. (2022). Axrorov Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 11(11).
9. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE" CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN, 1(4).
10. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. ILMIY AXBOROTNOMA, 57.
11. Akhrorov, A. A. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLK PROVERBS IN THE UPBRINGING OF A PERFECT PERSON. Theoretical & Applied Science, (1), 42-44.
12. Sharipov, F. G. (2021). CREATION OF MORPHOLOGICAL DICTIONARIES AS A FACTOR OF DEVELOPMENT OF UZBEK THEORETICAL MORPHOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 41-46.
13. Sharipov, F. G., & Sharipov, J. G. (2021). THE EARLY PERIOD OF THE FORMATION OF UZBEK SCIENTIFIC LINGUISTICS IN THE MIRROR OF THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC CONSCIOUSNESS. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 41-46.
14. Kodirova, M. M., & Anvarova, S. (2024). TIBBIY MALAKALI MUTAXASISLARNI TAYORLASHDA UMUMIY TIBBIY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH MECHANIZMI.(KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI FANINI OQITISH MISOLIDA). Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 20(4), 59-63.
15. Kodirova, M. M., & Muxammadova, G. Q. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT FANLARINI O 'QITISHDAGI O 'RNI (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg'ulotlarini organayzerlar asosida). PEDAGOGS, 53(1), 37-41.
16. Muxammadova, G. Q., & Kodirova, M. M. (2023). ISHLAB CHIQRISH SANOAT KORXONALARINI AHOLI YASHASH JOYLARI ATMOSFERA HAVOSIGA TASIRI. Экономика и социум, (11 (114)-2), 274-279.

17. Mukhammadova, G. Q., Kodirova, M. M., & Boqijonov, F. A. (2024). THE EFFECT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON ATMOSPHERIC AIR. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 28, 5-9.
18. Sharipov, F. G., & Galiyev, T. F. (2021). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 89-94.
19. Sharipov, F. (2019). VIEWS OF AYUB GULOMOV OF WORD-FORMATION. *Bulletin of Gulistan State University*, 2019(1), 42-45.
20. Sharipov, F. G., & Toshtemirova, N. X. (2019). AYYUB GULYAMOV AND THE STUDY OF THE CASE SYSTEM IN THE UZBEK LANGUAGE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 58-63.
21. Sharipov, F. G., & Raupov, M. X. (2019). THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE. *HISTORY*, 6, 29-2019.

